GENDER LINGVISTIKASI: ERKAKLAR VA AYOLLAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

No'monova Rayyona
Andijon Chet tillar instituti 106-guruh talabasi

Ilmiy maslahatchi: **Yuldasheva Sadoqatoy**
DOi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23706526

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender lingvistikasining shakllanishi, asosiy nazariy yondashuvlari va erkaklar hamda ayollar nutqidagi tendensiyalar ko'rib chiqiladi. O'zbek tilida jins omilining qanday namoyon bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Muallif nutqdagi farqlarni qat'iy qoida emas, vaziyatga bog liq tendensiya sifatida baholaydi.

Kalit so'zlar: gender lingvistikasi, sotsiolingvistika, nutq uslubi, stereotip, rapport talk, o'zbek tili.

Gender lingvistikasi — tilning gender bilan bog'liq xususiyatlarini, jamiyatda gender qarashlarining nutqda ifodalanishini va til orqali ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Ushbu soha: til, madaniyat, jamiyat va insonning ijtimoiy hayoti o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tadqiq etadi.

Gender lingvistikasining rivojlanishi tilshunoslikda inson omiliga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan bog'liq. An'anaviy tilshunoslik ko'proq tilning grammatik va fonetik xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, gender lingvistikasi til biriklarining ijtimoiy vaziyatlarda qanday qo'llanishga ham e'tibor qaratadi.

Tilshunoslikda ikki tushuncha farqlanadi. Gender jamiyat belgilagan rollar, odatlar va kutilmalar majmuasi. Nutq uchun gender muhum chunki: odam qanday gapirishi faqat tana tuzilishiga emas, qaysi muhitda o'sgani, kim bilan va qanday vaziyatda muloqot qilayotganiga ham bog'liq. Shuning uchun bir odamning o'zi oilada, ishda va do'stlari orasida turlicha gapirishi mumkin.

Gender va til o'rtasidagi munosabat haqida to'rtta asosiy qarash mavjud.

Kamchilik yondashuvi. Lakoff (1975) ayollar nutqini erkaklar nutqiga nisbatan «kuchsiz» va noaniq deb ta'riflagan. Uning fikricha, bu holat jamiyatda ayollarga berilgan o'rinning natijasi.

Hukmronlik yondashuvi. Dale Spender (1980) til asosan erkaklar nuqtai nazaridan shakllanganini ta'kidlaydi. Zimmerman va West (1975) erkak va ayol ishtirok etgan suhbatlarda erkaklar ayollarning gapini ko'proq bo'lishini kuzatgan.

Farq yondashuvi. Maltz va Borker (1982) hamda Deborah T annen (1990) erkaklar va ayollar bolalikdan turli tengdoshlar muhitida o'sishini, shu sababli ularning muloqot qoidalari ham farq qilishini aytadi.

Konstruktiv yondashuv. West va Zimmerman (1987) hamda Judith Butler (1990) gender tayyor xususiyat emas, u kundalik xatti-harakat va nutq orqali «bajariladi», deb hisoblaydi. Ko'plab zamonaviy tadqiqotlar shu qarashga yaqin: bu qarash farqlarni inkor etmaydi, lekin ularni vaziyatga bog'laydi.

Gender lingvistikasi bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. **Birinchisi — leksik-semantik yo'nalish.** Bu yo'nalish erkak va ayollarga nisbatan ishlatiladigan so'zlar, murojaat shakllari,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kasb nomlari va ularning ma'nolarini o'rganadi. Masalan, "ota", "ona", "aka", "opa", "erkak", "ayol" kabi so'zlar shaxsning jinsi yoki oilaviy munosabatlarini bildiradi.

Ikkinchisi — grammatik yo'nalish. Bu yo'nalishda tillarda grammatik jins kategoriyasining mavjudligi va uning qo'llanilishi tahlil qilinadi. Masalan, rus tilida otlar grammatik jinsga ega: "студент" va "студентка". O'zbek tilida esa otlar, odatda, grammatik jinsga ko'ra o'zgarmaydi. "Talaba" so'zi erkak yoki ayol talabaga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Uchinchisi — sotsiolingvistik yo'nalish. Bu yo'nalish gender, ijtimoiy muhit va nutq o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Unda murojaat shakllari, xushmuomalalik, rasmiy va norasmiy nutq hamda suhbat jarayonidagi til tanlovi tahlil qilinadi.

To'rtinchisi — diskursiv yo'nalish. Ushbu yo'nalishda gender xususiyatlarining kundalik suhbatlarda, ommaviy axborot vositalarida, reklamalarda, badiiy asarlarda va internetdagi muloqotda namoyon bo'lishi o'rganiladi.

Mazkur yo'nalishlar gender lingvistikasining ko'p qirrali soha ekanini ko'rsatadi.

Lakoff (1975) ayollar nutqiga xos deb bir qator belgilarni sanagan: yumshatuvchi ifodalar (inglizchada hedges), gap oxiridagi tasdiq so'rovlari, «ajoyib», «juda yoqimli» kabi baholovchi so'zlar, muloyim va bilvosita so'rov shakllari. O'zbek tilidagi o'xshash vositalar sifatida «iltimos», «marhamat», «balki», «shekilli», «menimcha» hamda -jon, -gina kabi erkalash qo'shimchalarini keltirish mumkin.

Labov (1972) va Trudgill (1972) tadqiqotlarida ayollar o'rtacha hisobda adabiy me'yorga yaqin, nufuzli shakllarni ko'proq tanlashi kuzatilgan.

Lakoff xulosalari asosan shaxsiy kuzatuvga tayangan. Keyingi tadqiqotlarda yumshatuvchi ifodalar ko'pincha kuchsizlik emas, hamkorlik va muloyimlik belgisi sifatida talqin qilinadi (Holmes, 1995).

Tannen (1990) erkaklar muloqotini ko'proq «report talk» deb ta'riflaydi: maqsad axborot berish, o'z fikrini asoslash va suhbatdagi o'rnini mustahkamlash. Ayollar uchun xarakterli «rapport talk» esa yaqinlik va o'zaro aloqani o'rnatishga yo'naltirilgan.

Erkaklar guruhlarida raqobatli uslub — bahs, hazil-mutoyiba, so'zni bo'lish — ko'proq tilga olinadi. Jargon, kuchli ifodalar va suhbat mavzulari (sport, texnika, ish) ham shu tendensiya doirasida tahlil qilinadi. Bu umumiy manzara: aniq guruh va vaziyatda u keskin o'zgarishi mumkin.

O'zbek tilida grammatik jins kategoriyasi yo'q: fe'l va sifatlar ega jinsiga qarab o'zgarmaydi. Shu sababli gender farqi grammatikada emas, boshqa sathlarda ko'rinadi: leksika va murojaat shakllarida: opa, aka, kelin, qaynona kabi so'zlar jins va ijtimoiy rolni birga ifodalaydi; ism yasovchi qo'shimchalarda: -xon, -oy ayol ismlarida, -bek erkak ismlarida uchraydi; an'anaviy nutq odobida: kelinning qaynona-qaynota va ularning yaqinlari ismini aytishdan tiyilishi (nom tabusi) ayollar nutqiga xos madaniy qoida sifatida tilga olinadi.

Bugun til siyosatida gender-neytral shakllar muhokama qilinmoqda: kasb nomlari va murojaatlarda ikkala jinsni qamrab oluvchi variantlar izlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardagi yozishmalar esa nutq uslublarini kuzatish uchun yangi material berdi. Ayni paytda «ayollar ko'p gapiradi» kabi qoliplar tadqiqotlarda ko'pincha tasdiqlanmaydi.

Erkaklar va ayollar nutqida tendensiyalar mavjud, ammo ular qat'iy chegara emas. Nutqqa jins bilan birga yosh, kasb, ta'lim, muloqot maqsadi va suhbatdosh bilan munosabat ham ta'sir qiladi. Gender lingvistikasining asosiy xulosasi shuki, nutq jinsni shunchaki «ko'rsatmaydi», ko'p hollarda uni jamiyatdagi kutilmalar bilan birga «yaratadi». O'zbek tili materialida bu yo'nalishni chuqurroq o'rganish uchun keng imkoniyat bor.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Adabiyotlar

1. Yusupova M. Gender lingvistikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. (O‘zbek tilshunosligida gender masalalari, murojaat shakllari va nutqiy xususiyatlarni ochib beruvchi asosiy monografiyalardan biri).
2. Nazarova G. O‘zbek tilida gender tadqiqotlari (leksik-semantik va sotsiolingvistik tahlil). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2021.
3. Rahimov S. Sotsiolingvistika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2018. (Til va jamiyat, ijtimoiy omillarning nutqqa ta’siri, shu jumladan gender omili yoritilgan).
4. Jalolova D. O‘zbek muloqot madaniyatida gender aspektlari. // Tilshunoslik muammolari ilmiy jurnali, 2022, №3, 45–52-betlar.
5. To‘ychiyeva M. O‘zbek tilida ijtimoiy-madaniy va lingvistik gender xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.